

**QURILISH OB'EKTI DAGI BAJARILGAN ISHLAR HAJMINI ANIQLASH MAQSADIDA  
NAZORAT O'LCHOVI XIZMATINI KO'RSATISH BO'YICHA  
SHARTNOMA № 30**

**Andijon shaxri.**

**“07” noyabr 2022 yil**

Paxtaobod tuman xalq ta'limi bo'limi (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi»), nomidan "Nizom" asosida raxbari A.O'smonov bir tomondan, va "Andijon Standart Eksport" mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda «Ijrochi») nomidan "Nizom" asosida ish yurituvchi raxbari Sh.Xayitov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

**1.Shartnoma predmeti.**

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha Buyurtmachining topshirig'iga asosan Ijrochi mazkur shartnomaning 1.2-bandida aks ettirilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ko'rsatilgan xizmatlar uchun mazkur shartnomaning 3.1-bandida aks ettirilgan to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ko'rsatiladigan xizmat nomi: *Paxtaobod tuman 3-maktab binosini rekonstruksiya qilish va 69-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi binosini mukammal ta'mirlash ishlarini nazorat o'lchovidan o'tkazish.*

1.3. Ijrochi bajarilgan qurilish montaj ishlarning nazorat o'lchovini qurilish soxasiga oid amaldagi me'yoriy-xuquqiy xujjatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligining me'yoriy xujjatlariga asoslangan xolda amalga oshiradi.

1.4. Xizmat ko'rsatish muddati: Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3.1.-bandida ko'rsatilgan miqdorda to'lov amalga oshirilgandan so'ng va nazorat o'lchovini boshlash uchun ushbu shartnomada ro'yxati keltirilgan zarur bo'lgan xujjatlarni taqdim etgan kundan boshlab 2022 yil 30 dekabr g a qadar. Ijrochi ushbu shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarni muddatidan ilgari ko'rsatish xuquqiga ega.

1.5. Ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra xujjatlarni taqdim etilishi kechikgan xolda, shartnomaning ijro etish muddati qo'shimcha kelishuvga asosan 1 oygacha uzaytirilishi mumkin.

**2.Tomonlarning xuquq va majburiyatlari.**

**2.1.Ijrochining majburiyatlari:**

2.1.1. Xizmat ko'rsatishni yuqori maxsus sertifikatga ega mutaxassislar tomonidan professional darajada amalga oshirish;

2.1.2. Ushbu shartnomaning 1.4.-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq xajmda xizmat ko'rsatish;

2.1.3. Ijrochi nazorat o'lchovi jarayonida xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada shartnoma shartlaridan chetlashgan bo'lsa Buyurtmachining talabiga asosan 5 kun davomida aniqlangan barcha nuqsonlarni bartaraf etish.

2.1.4. Xizmatlarni shaxsiy tarkibga kiritilgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash, Buyurtmachining yozma roziligisiz boshqa yuridik shaxslarni nazorat o'lchoviga jalb etmaslik.

2.1.5. Nazorat o'lchovi natijalari bo'yicha Buyurtmachiga nazorat o'lchoviga oid materiallarni topshirish va xisob-fakturani elektron shakldarasmiylashtirish.

**2.2.Ijrochining xuquqlari:**

2.2.1. Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3.2-bandida ko'rsatilgan oldindan to'lov oshirilgandan so'ng va mazkur shartnomada ro'yxati keltirilgan xujjatlarni to'liq taqdim etilgandan so'ng xizmat ko'rsatishni boshlash.

2.2.2. Buyurtmachidan mazkur shartnomaning 1-sonli ilovasida keltirilgan nazorat o'lchovini o'tkazish uchun zarur bo'ladigan xujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etiladi.

2.2.3. Shartnomada belgilangan xizmatlarni amalga oshirilishini mustaqil tashkil etish, ya'ni nazorat o'lchovini o'tkazish usullarini, hamda mutaxassislar tarkibini erkin tanlash.

2.2.4. Hizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan savollar bo'yicha buyurtmachi shaxsning mas'ul xodimlaridan tushuntirishlar olish.

**2.3.Buyurtmachining majburiyatlari:**



- 2.3.1 Ushbu shartnomaning 3-bo'limida ko'rsatilgan tartibda xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish.
- 2.3.2. Ijrochining talabiga asosan mazkur shartnomada keltirilgan ro'yxatdagi xujjatlarni to'liq xajmda shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 kalendar kundan muddatda taqdim etish.
- 2.3.3. O'z xodimlari va boshqa qurilish qatnashchilari vakillarining ishtirokini ta'minlash.
- 2.3.4. Ijrochini transport vositasi bilan ta'minlash, zarur xollarda transport harajatini qoplash va Ijrochi vakilining asosiy ish joyijoylashgan shaxar yoki axoli turar-joyidan tashqarida xizmatlar ko'rsatiladigan davr uchun ishlarni olib borish va yashash uchun joy bilan ta'minlash.
- 2.3.5. Ijrochidan nazorat o'lchovi yakuni bo'yicha tuzilgan dalolatnomani olgan kundan e'tiboran 5 kalendar kundan ortmagan muddatda xizmatlar qabul qilinganligini tasdiqlaydigan xisob fakturani belgilangan tartibda rasmiylashtirish.

#### **2.4. Buyurtmachining xuquqlari:**

- 2.4.1. Ijrochidan nazorat o'lchovi materiallarini, ushbu shartnomaning bajarilishi xolati va yakuniy natijalari bo'yicha ma'lumotlarni talab qilish va olish.
- 2.4.2. Ob'ektda bajarilgan qurilish-montaj va ta'mirlash ishlarinazorat o'lchovini amalga oshirish jarayonida qatnashish.

#### **3.Shartnomaning qiymati va xisob-kitoblar tartibi.**

- 3.1. Shartnomaning qiymati qo'shilgan qiymat solig'i 15% bilan **51.300.000. (Ellik bir million uch yuz ming)** so'mni tashkil etadi.
- 3.2. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kuni «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30% foizini ya'ni **15.390.000 (o'n besh million uch yuz to'qson ming)** so'm oldindan avans tariqasida «Ijrochi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.
- 3.3. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70% foizi, ya'ni **35.910.000 (o'ttiz besh million to'qqiz yuz o'n ming)** so'm «Ijrochi» tomonidan bajarilgan ishlar akt asosida o'tkazib beradi.
- 3.4. Buyurtmachi tomonlar ushbu shartnomani imzolagan kundan boshlab 10 bank ish kuni davomida ijrochining xisob raqamiga shartnomaning umumiy qiymatidan 100 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 3.5. Ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar xajmi oshgan yoki kamaygan taqdirda shartnoma qiymatiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

#### **4.Xizmatlar (ishlar) ni topshirish va qabul qilish tartibi.**

- 4.1. Xizmatlar ko'rsatilgandan (nazorat o'lchovi bo'yicha ishlar yakunlangandan) so'ng Ijrochi buyurtmachiga nazorat o'lchovi dalolatnomasini taqdim etadi. Buyurtmachi Ijrochidan nazorat o'lchovi dalolatnomasini olgan sanadan boshlab 5 ish kun muddat ichida nazorat o'lchovi natijalari bilan tanishib chiqib, e'tirozlar mavjud bo'lgan xolda yozma ravishda bildirilishi lozim. Ushbu muddat o'tganidan so'ng e'tirozlar bildirilmagan taqdirda nazorat o'lchovi dalolatnomasi qabul qilingan hisoblanadi.
- 4.2. Ijrochi xizmat ko'rsatish jarayonida xizmat ko'rsatishni davom ettirish imkoniyati yo'qligi yoki xizmat ko'rsatishning maqsadga muvofiq emasligini aniqlagan taqdirda bu xaqda Buyurtmachiga yozma xabar berish lozim.
- 4.3. Buyurtmachining vakolatli vakili tomonidan nazorat o'lchovi dalolatnomasi imzolanganidan so'ng xizmatlar ko'rsatilgan xisoblanadi.
- 4.4. Buyurtmachi tomonidan 100% to'lov amalga oshirilib, nazorat o'lchovi dalolatnomasi to'liq rasmiylashtirilgandan so'ng, xisob-faktura elektron shaklda rasmiylashtirilib buyurtmachiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Ijrochi tomonidan rasmiylashtirilgan nazorat o'lchovi dalolatnomalari buyurtmachi va pudratchiga topshiriladi.

#### **5.Maxfiylik.**

- 5.1. Tomonlar ushbu shartnomaning mavjudligi va mazmuni, shuningdek ushbu shartnoma doirasida tomonlarning xar biriga taqdim etilgan xar qanday ma'lumotlarni sir saqlash majburiyatini oladi.
- 5.2. Tomonlar ushbu shartnomaning shartlari to'g'risida ma'lumotlarni tomonlarning birini oldindan berilgan yozma rozilgisiz uchinchi tomonga umuman yoki qisman ochmaslik va oshkor etmaslik



majburiyatini oladi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan ayrim xolatlar bundan mustasno.

5.3. Ushbu shart boshqa shaxslar tomonidan qonuniy tarzda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga tegishli emas.

#### **6.Fors-major xolatlar:**

6.1. Ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng favqulodda xolatlar (yong'in, suv toshqini, zilzila, va shu kabi boshqa tabiiy ofatlar) sodir bo'lishi oqibatida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmasligiga majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajara olmagan tomon sodir bo'lishini oldindan ko'ra bilish yoki ularni oldini olish imkoniyati yo'qligi tufayli (engib bo'lmas xolatlar) javobgar bo'lmaydi.

6.2. Fors-major xolatlar yuzaga kelishi bilan ushbu xolatlar va ularning oqibatlari xarakatda bo'lgandavrga mos ravishda majburiyatlarini bajarish muddati uzaytiriladi.

6.3. Tomonlar fors-mojor xolatlar boshlanishi va tugashi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishlari lozim.

6.4. Fors-major sodir bo'lganligini ro'kach qiladigan tomon tegishli davlat idorasidan ushbu xolatni tasdiqlovchi xujjatni taqdim etishga majburdir.

6.5. Ushbu shartnomani ijro etishning imkoni bo'lmagan taqdirda oldindan to'lov miqdoridan Ijrochining xaqiqatda qilgan xarajatlari miqdoriga kamaytirilganidan qolgan qismi qaytarib beriladi.

#### **7.Tomonlarning javobgarligi.**

7.1. Ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish muddatlari buzilgan taqdirda Ijrochi majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida xar bir muddati o'tgan kun uchun penya to'laydi, lekin bunda to'lanadigan penyaning umumiy miqdori majburiyatlarning bajarilmagan qismining 50 foiz miqdoridan ko'p bo'lmasligi lozim.

7.2. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda Buyurtmachi Ijrochiga muddati kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4 foiz miqdorida xar bir kechiktirilgan kun uchun penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy miqdori muddati kechiktirilgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmasligi lozim.

7.3. Penyalarning to'lovi tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

7.4. Ushbu shartnomada ko'rsatilmagan tomonlarning javobgarligi bo'yicha choralar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi xamda O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga asosan qo'llaniladi.

#### **8.Shartnomani amal qilish muddati va uning bekor qilinishi tartibi.**

8.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, «31» dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

8.2. Ijrochi Buyurtmachi tomonidan quyidagi shartlar bajarilmagan taqdirda bo'nak to'lovlarini qaytarmagan xolda shartnomani bekor qilishni talab qilish xuquqiga ega:

- xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan xujjatlarni to'liq va kerakli xajmda taqdim etmaganda;
- pudratchi tashkilotlar vakillarini qatnashishlari ta'minlanmaganda;
- Buyurtmachi tomonidan Ijrochiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra xizmat ko'rsatishni bir oydan ortiq muddatga to'xtatilganda.

8.3. Buyurtmachi quyidagi xolatlarda shartnomani bekor qilishni talab qilish xuquqiga ega:

-buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Ijrochi tomonidan xizmat ko'rsatishni 15 kunga kechiktirilganda;

- shartnomada ko'rsatilgan muddatga nisbatan xizmat ko'rsatishni tugatish muddati ijrochiningaybi bilan bir oydan ortiq muddatga uzaytirilganda.

8.4. Ushbu shartnomani bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan tomon ikkinchi tomonni 2 kun davomida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

#### **9.Nizolarni xal etish tartibi.**

9.1.Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va tushunmovchiliklar imkon qadar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan xal etiladi.



9.2. Nizo va tushunmovchiliklar muzokara yo'li bilan xal etilmagan taqdirda tomonlar nizolarni bartaraf etishning sudgacha bo'lgan barcha choralarni ko'rgandan so'ng nizolar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Sudi organlarida xal etiladi.

#### 10. Yakuniy qoidalar.

10.1. Ushbu shartnomaga kiritiladigan xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishdaturzilgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirdagina xaqiqiy xisoblanadi.

10.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha ko'zda tutilmagan barcha xolatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan xarakat qiladilar.

10.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa xam aynan o'xshash va bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning xar birida ushbu shartnomaning bir nusxasi mavjud.

#### "BUYuRTMACHi"

Paxtaobod tumani xalq ta'limi bo'limi  
Paxtaobod t. Kelajak ovozi ko'chasi  
Shx/r: 100022860032327092100075062  
INN: 200294928. XXTUT: 97600  
STIR: 201122919. MFO: 00014  
X/R: 23402000300100001010  
Markaziy bank XXKM Toshkent shaxri

#### «IJROChI»

«Andijon Standart Eksport» MChJ  
Manzil: Andijon viloyati,  
Andijon shaxri, Saxovat ko'chasi, № 2A.  
x/r: 20208 00010 05935 99001  
Bank: Andijon shahar ChEKI "Xamkorbank"  
ATB bankining Bosh ofisi  
MFO: 00083; STIR: 303831428 ;  
Tel : +998 90-200 74 00



Raxbar:

(imzo va muxr)

A.O'smonov



Raxbar:

(imzo va muxr)

Sh.Xayitov

2022 yil " 07 " noyabrda  
tuzilgan 30-sonli shartnomaga  
2-sonli ilova.

**Nazorat o'lehoivi o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etilishi lozim bo'lgan  
hujjatlar ro'yxati.**

1. Buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar vakillari yoki vakillarga nazorat o'lehoivida qatnashish va dalolatnomani imzolash xuquqini beruvchi buyruq.
2. Qurilish montaj ishlarini amalga oshirish uchun asos bo'lgan hujjatlar.
3. Oylik kesimida pudratchilar tomonidan bajarilgan ishlar reestri
4. Loyixalashga topshiriq va nuqsonlar dalolatnomasini inobatga olgan loyixa smeta hujjatlari (LSH).
5. LSHga noidoraviy ekspertiza tashkilotining ekspert xulosasi.
6. Qurilish montaj ishlarini amalga oshirish shartnomasi.
7. Ishlar turi bo'yicha tasniflangan rasshifirovka qilingan bajarilgan qurilish montaj ishlari qiymati xaqidagi xisob faktura ma'lumotnomalari.
8. Ko'zga ko'rinmaydigan (yopiq) va buzib olingan (demontaj) ishlari dalolatnomalari , shuningdekbuzilish jarayonida foydalanishga yaroqli bo'lgan qurilish materiallari kirim hujjatlari.
9. Ijro chizmalari , texnik va ijro hujjatlari.
10. Tanlov savdolarida g'olib chiqqan tashkilotning ofertasi (tanlov hujjatlarini inobatga olgan xolda), g'olib bo'lganligi to'g'risida tanlov komissiyasining bayonnomasi, zaruriy xollarda qolgan da'vogarlarning ofertalari.
11. Bajarilgan ishlar va to'lovlar bo'yicha ma'lumot.
12. Ish turlari bo'yicha bajarilgan ishlar dalolatnomasi yig'masi(elektron ko'rinishda).



Raxbar:  A.O'smonov  
(imzo va muxr)



Raxbar:  Sh.Xayitov  
(imzo va muxr)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY**

**XULOSA**

DY6252477344

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Haq evaziga xizmat ko'rsatish
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Paxtaobod tumani xalq ta'limi tomonidan 04.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Paxtaobod tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**L.A.MIRDOSOVA**

07.11.2022